

«Asaka» Bankining 2018 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi

«Asaka» Bankining 2018 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi «Asaka» Bankining O'zbekiston bank bozorida 2018 yildagi tijorat faoliyati uchun asos hisoblanadi va 2018 yil uchun belgilangan strategik parametrlarni amalga oshirish, jumladan, ularga erishish uchun tadbirlarni ham o'z ichiga olgan moliyaviy loyihadir.

Reja bankning real istiqbollari va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va yagona maqsadga erishishga yo'naltirilgan barcha tashkiliy tuzilmalarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiruvchi 2018 yilga mo'ljallangan korporativ vazifalarning aniq-ravshan qo'yilishini o'z ichiga oladi.

Tanlangan yuksak burchiga sodiq qolib va o'zining raqobatli ustunliklaridan maksimal darajada foydalangan holda Bank 2018 yilda bank xizmatlari bozori va moliyaviy bozorining barcha jabhalarida o'z faoliyatini jadallashtirishni davom ettirish niyatidadir. Ushbu dasturiy hujjat bilan belgilangan tijoriy faoliyatning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish uchun Bank kredit operatsiyalarini, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni va investitsiyalarni, moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalarni o'tkazishni rejalashtirmoqda, shuningdek, ko'rsatilayotgan vositachilik va kuzatma xizmatlarning hajmi va ko'lamini kengaytirish niyatidadir.

Buyurtmalar portfeli va kreditlarga prognozlanayotgan ehtiyojning mavjudligidan kelib chiqqan holda Bank ham ichki resurslar hisobidan, ham xorijiy moliyaviy va bank tashkilotlarining mablag'larini jalb qilish hisobiga milliy va xorijiy valyutada kredit operatsiyalarini amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

2018 yilda Bank kredit portfelini (netto) o'tgan yilga nisbatan 22,0% ga ko'paytirib, uni hajmini 19,0 trln so'mga yetkazishni rejalashtirmoqda.

2018 yilga mo'ljallangan Bank daromadlari va xarajatlarining prognozlanayotgan tuzilmasi

	mln so'm	nisbiy qiymat
Daromadlar jami, shu jumladan:	1 587 000,0	100,0%
Foizlik daromadlar	1 102 000,0	69,4%
Foizsiz daromadlar	485 000,0	30,6%
Xarajatlar jami, shu jumladan:	1 457 000,0	100,0%
Foizlik xarajatlar	602 000,0	41,3%
Foizsiz xarajatlar	80 000,0	5,5%
Operatsion xarajatlar	380 100,0	26,1%
Ssuda va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy ziyonlar zaxirasi	355 900,0	24,3%
Foydadan soliq	39 000,0	2,7%
Sof foyda:	130 000,0	